



Qo'qon DPI

**ILMIY
XABARLAR**

ISSN: 3030-3958

№ 7/2025

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar



**Кокандский ГПИ.
Научный вестник**

№7/2025

УЎК 5/9(08) КБК 72я5 Қ 99	Bosh muharrir: Qo'qon davlat universiteti rektori D.Sh.Xodjayeva Mas'ul muharrirlar: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.Y.Pulatov Mas'ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Bazarov Nashr uchun mas'ul: M.I.Sobirova
MUASSIS: Qo'qon davlat universiteti Qo'qon DPI. ILMIY XABARLAR- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda o'n ikki marta chop etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro'yxatga olingan. Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart. "Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro'yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix. 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san'atshunoslik fan tarmoqlari bo'yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan. Tahririyat manzili: 150700, Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Cайт: www.kspi.uz journal.kspi.uz ISBN: 978-9943-7182-7-2 "CLASSIC" nashriyoti 2025	TABIIY FANLAR I.I.Гибадуллина, кандидат биологических наук. (РФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O'ZB) V.U.Xo'jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) M.T.Isog'aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'ZB) A.J.Xusanov-fizika-matematika fanlari nomzodi, docent (O'ZB) O.A.Turdiyev, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) G'.M.Ochilov, kimyo fanlari nomzodi, professor (O'ZB) B.Numonov, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) FILOLOGIYA FANLAR Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ) В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ) К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) G.Israilov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'ZB) IJTIMOIIY FANLAR Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O'ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O'ZB) PEDAGOGIKA FANLAR P.Ф.Ахтариёва, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O'ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB)



MA'NAVIY QADRIYATLARNING YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARIDA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

Ikromov Ravshan Aktamovich

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori,
yuridik fanlar nomzodi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, jamiyatdagi ma'naviyat va huquqiy madaniyatning o'zaro aloqadorligi, ularning ijtimoiy hayotiga ta'sirini tahlil qilingan hamda bu jarayonda huquqiy madaniyat va ma'naviyatning muhim o'rni ochib berilgan. Shuningdek maqolada, aholi huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish xususiyatlari, zamonaviy huquqiy mafkuraning nazariy va amaliy talqinini yaratish masalalari o'zining etarli ifodasini topmagan.

Kalit so'zlar: islohot, tafakkur, dunyoqarash, Yangi O'zbekiston, ma'naviyat, huquqiy madaniyat, huquq, demokratiya, fuqarolik jamiyati, milliy hamjihatlik, qonunning ustuvorligi, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, milliy o'zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlar.

РОЛЬ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: В статье анализируется взаимосвязь духовности и правовой культуры в обществе, их влияние на общественную жизнь, раскрывается важная роль правовой культуры и духовности в этом процессе. Также в статье недостаточно освещены особенности формирования правового сознания и правовой культуры населения, вопросы создания теоретической и практической интерпретации современной правовой идеологии.

Ключевые слова: реформа, идеология, мировоззрение, Новый Узбекистан, духовность, правовая культура, право, демократия, гражданское общество, осознание национальной идентичности, национальное единство, верховенство закона, национальные ценности, общечеловеческие ценности, духовные ценности.

THE ROLE OF SPIRITUAL VALUES IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE LEGAL CULTURE OF THE YOUTH OF NEW UZBEKISTAN

Abstract: The article analyzes the relationship between spirituality and legal culture in society, their influence on public life, and reveals the important role of legal culture and

spirituality in this process. The article also does not sufficiently cover the features of the formation of legal consciousness and legal culture of the population, issues of creating a theoretical and practical interpretation of modern legal ideology.

Key words: reform, ideology, worldview, New Uzbekistan, spirituality, legal culture, law, democracy, civil society, awareness of national identity, national unity, rule of law, national values, universal human values, spiritual values.

KIRISH. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yangilanayotgan O‘zbekistondagi islohotlar tizimli ravishda amalga oshirilayotgani va xalqning manfaatlariga asoslangani sababli, yangilanayotgan O‘zbekiston g‘oyasi bevosita huquqiy madaniyatga, ma’naviyatga tayanadi va uning kuchiga suyanadi. Ma’naviyat va huquqiy madaniyatga katta kuch sifatida qaraladi. Mustaqillikka erishganimizning dastlabki kunlaridanoq oldimizga asosiy maqsad qilib huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishni maqsad qilib qo‘ydik. Huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyati bir qator o‘ziga xos ma’naviy xislat va fazilatlari bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyatida inson, uning hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy – ma’naviy va siyosiy manfaatlar, ya’ni, qadr-qimmati, qadriyatlari, huquqlari va erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan qonun orqali kafolatlanadi. Huquqiy davlatning, shuningdek erkin fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos xususiyatlardan biri huquqning oliy hukumronligidir. Huquqiy davlatda hamma narsa, har qanday masala qonunlar, huquqiy me’yorlar asosida adolatli yo‘l bilan hal etiladi. Bunday davlatda barcha fuqaro qonun oldida teng bo‘lib, ularning o‘zaro munosabatlarini qonunlar tartibga solib turadi. Qonun siyosatdagi ma’naviyat sifatida hamma uchun barobar huquq va mas’uliyat yuklaydi va insonlararo muomala me’yorini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, globallashuv sharoitida milliy ma’naviyatni saqlash va uni yangi avlodga to‘g‘ri etkazishning muhimligi ortib bormoqda. Global axborot oqimining keskin ta’siri ostida ma’naviyatning saqlanishi va uning jamiyatdagi ustuvor mavqeini qo‘llab-quvvatlash jamiyat oldidagi dolzarb vazifadir.

Ijtimoiy falsafa uchun hamma zamonlarda ham jamiyatning umumiy rivojiga, davrning aniq voqea-hodisalariga, aholi qatlamlari, ijtimoiy guruhlarning qanday munosabatda bo‘layotgani, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samarasi muhim ahamiyatga ega. Shu asosda jamiyat taraqqiyoti, uning ma’naviy makoni o‘rganiladi va tahlil etiladi. Bu jihatdan, jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti masalasi ham zamonaviy falsafiy fanlarning muhim tadqiqot yunalishi hisoblanadi.

Bu mavzuning O‘zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog‘liq masalalari Prezident Shavkat Mirziyoyevning asarlarida, nutq va ma’ruzalarida bugungi jamiyat rivojining ustuvor vazifalari sifatida asoslab berilmoqda. Oliy majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqida “Bizning eng katta boyligimiz - bu xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir”, deb ta’kidlagani aslo bejiz emas[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mazkur maqolamizning metodologik va nazariy asoslarini O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etish, fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish jarayonida ma’naviyat va huquqiy madaniyatning o‘rni hamda ahamiyatiga oid fikrlari, ko‘rsatmalari, asarlari hamda ushbu mavzuning turli jihatlarini buyicha izlanishlar olib borayotgan mamlakatimiz va xorijlik huquqshunos, siyosatshunos va faylasuf olimlarning asarlari tashkil qildi.

Ma’naviyat va huquqiy madaniyat o‘rtasidagi aloqadorlikning nazariy va amaliy jihatlarini, jamiyatning huquqiy madaniyati, ma’naviy-axloqiy asoslariga oid muammolar Yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti barcha ijtimoiy gumanitar yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida turibdi. So‘nggi yillarda fuqarolik jamiyatining mohiyati, tabiati hamda uni shakllantirish jarayonlariga bag‘ishlangan, shuningdek tegishli huquqiy madaniyat, huquqiy ong va huquqiy mafkura tahliliga doir bir qator siyosiy-nazariy, falsafiy, huquqiy, tarixiy yo‘nalishdagi asarlar chop etildi.

Jamiyatda huquqiy madaniyatning mohiyati, tushunchasi, funksiyalari, uslublariga oid izlanishlar, shuningdek quyidagi xorijlik mualliflar tomonidan ham amalga oshirilgan: E.V.Agranovskaya, L.A.Ershova, N.M.Keyzerov, A.L.Likas, M.N.Marchenko, N.Y.Matuzov, V.M.Mejuev, V.S.Nersesyans, A.R.Ratinov, YU.M.Reznik, V.P.Salnikov, V.A.Chetvernin va boshqalar. Mavjud tadqiqotlar fuqarolik jamiyati va uning ma’naviy poydevori hisoblangan huquqiy madaniyatning mohiyati hamda mazmunini o‘rganishga muhim hissa qo‘shganligini e’tirof etish lozim.

MUHOKAMA. Hozirgi davrda amalga oshirilayotgan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi[2] jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy jabhalarida tub tarixiy burilish bilan bog‘liq bir qator muammolarni va vazifalarni hal etish masalasini qo‘ymoqda. Ana shunday ulkan vazifa va mas’uliyat xalqimizdan bir tomondan, ma’naviy yuksalishni, ikkinchi tomondan esa, fuqarolik jamiyati qurishda unga tayanishni taqozo qilmoqda. Albatta bu taraqqiyot yo‘lini amalga oshirish, ya’ni, fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy omillaridan biri - xalqimiz ma’naviyatini rivojlantirish, yuksaltirishdir.

Jamiyatda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an‘analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Insonlar o‘zligini chuqur anglashi, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishi, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvi, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg‘onishini ta’minlash ma’naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylandi.

Mamlakatimizda rivojlangan fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsad etib belgilangan bir paytda, demokratik tamoyillarni egallash, fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, shaxs

erkinligini amalda joriy etish, siyosiy jarayonlarni erkinlashtirish, demokratik me‘yorlar asosida ko‘ppartiyaviylik tizimini takomillashtirish, davlat boshqaruvi organlarining ayrim vakolatlarini bosqichma-bosqich jamoat va o‘zini o‘zi boshqarish organlariga berish kabi vazifalar umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o‘zida ifoda etgan holda ma‘naviyat bilan tutashadi. Jamiyatdagi demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun ma‘naviyat siyosatning bosh tayanchi bo‘lmog‘i kerak.

O‘zbekiston mustaqilligining 35 yili mobaynida biz bu borada ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritdik. Mamlakatimiz eski totalitar tuzum illatlaridan qutulib, yangi munosabatlarga asoslangan tuzumga o‘tdi. Shunga muvofiq ravishda ijtimoiy munosabatlar o‘zgarmoqda, fuqarolik jamiyati vujudga kelmoqda. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, bu murakkab jarayon. Chunki, islohotlar mustaqillikni mustahkamlash, xalqning ongini asta-sekin yangi zamonga qarab o‘zgartirish negizida davom etmoqda. Odamlar ongi, tafakkuri esa tez o‘zgaradigan hodisa emas. Milliy o‘zlikni anglash, milliy hamjihatlik, ma‘naviy qadriyatlarni tiklash sohasida ko‘p ishlar amalga oshirildi. Aytish mumkinki, Vatanimiz qiyofasi ana shu muddat ichida tubdan o‘zgardi. Tariximiz tiklandi, ulug‘ ajdodlarimiz nomlari oqlanib, ular merosini o‘rganish keng miqyosda davom etmoqda. Islom dini iymon-e‘tiqodimiz sifatida qayta tiklandi, o‘zbek tili davlat maqomini oldi. SHular zamirida yurtdoshlarimiz qalbida o‘z o‘tmishi, buyuk vatani bilan faxrlanish tuyg‘usi shakllanmoqda. O‘zbek farzandlari bugun boshini baland ko‘tarib, dunyo bo‘ylab o‘zini namoyon etmoqda. Milliy g‘urur, vatanparvarlik tuyg‘usi vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun kurash tuyg‘usi bilan uyg‘unlashib, ma‘naviyatimiz asosini belgilamoqda.

Fuqarolik jamiyatini barpo etish ma‘naviy etuk insonlarni tarbiyalash, ta‘lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga ham bog‘liq. CHunki, ayni bilimlilik va yuqori ma‘naviyatlilikdan hammaning baxt-saodati yo‘lida foydalanish mumkin. Aslini olganda etuk insonlarni aqliy faoliyatlari, tafakkuri jahon fani va ma‘naviyatining eng yaxshi yutuqlarini o‘ziga singdirib olgan barkamol avlodni tarbiyalash, kamol toptirish davr talabidir. Jamiyatda ma‘naviyatni rivojlantirish va yuksaltirishda bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi bir necha ijtimoiy institutlar va omillar mavjud.

Yuksak ma‘naviyatga ega barkamol avlodni tarbiyalashda, har bir millatning o‘ziga xos milliy qadriyatlarini, ma‘naviyatini shakllantirishda va yuksaltirishda oilaning o‘rni beqiyosdir. Mamlakatimiz Konstitutsiyasida oilaning ijtimoiy maqomi aniq belgilab qo‘yilganligi, shu asosda Oila, Fuqarolik, Uy-joy kodekslari va boshqa zarur qonun hujjatlari qabul qilinib, bu borada tegishli xuquqiy poydevor yaratilganligi oila institutini jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tizimlari, yurtimizdagi ma‘naviy o‘zgarishlar bilan uyg‘un tarzda rivojlantirish, uning nufuzini oshirish masalasiga doimiy e‘tibor berib”, kelinayotganligidan dalolat beradi.

Ma‘naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, mahallaning roli va ta’siri xususida to‘xtalish albatta o‘rinlidir. Darhaqiqat, dunyoning birorta mamlakatida uchramaydigan mahalla institutiga istiqlolning dastlabki yillaridanoq davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan katta e‘tibor qaratilib, obro‘si qayta tiklandi, vakolati kengayib, hayotimizda tutgan o‘rni

yuksaldi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahallaning huquqiy maqomi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi” sifatida belgilab qo‘yilganligi ham ana shundan dalolat beradi.

NATIJALAR. Bugungi kunda mahallalar mustaqil ijtimoiy institut sifatida qaytadan mustahkamlandi va mahalla jamiyatda ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlar, sog‘lom turmush-tarzi falsafasining qaror topishi, barkamol avlodni tarbiyalash, joylarda ta’lim, aholi bandligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish, jamoat xavfsizligi va xuquq-tartibotni ta’minlashga katta hissa qo‘shmoqdalar.

Ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta’lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ta’lim-tarbiya haqida gap ketganda, Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan fikrlarini eslash kifoya, deb o‘ylaymiz. Vatanimizning yorug‘ kelajagini belgilaydigan, uning kuch-qudratini ta’minlaydigan omillar orasida ta’lim-tarbiya sohasi alohida o‘ringa ega.

Shuning uchun ham barkamol avlodni tarbiyalashning bosh vositasi bo‘lgan ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida milliy ta’lim mazmuni va sifatini zamon talablariga ko‘tarish bilan bir qatorda, taraqqiy topgan davlatlardagi o‘quv markazlariga borib o‘qishlariga, professor-o‘qituvchilarning xorijda malakalarini oshirishlariga hamda ta’lim sohasi bilan bog‘liq xorijiy mablag‘ va grantlarni respublikaga jalb etishiga katta e’tibor qaratilib kelinmoqda.

Qadriyatlar ham ma’naviyatning tarkibiy qisimlaridan birini tashkil etadi. Ular ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanib boradi. Qadriyatlar kishilarning turli sohalardagi, avvalo, ishlab chiqarishi, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsa va hodisalar majmui bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Tabiat va jamiyat hodisalari insonning moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish, yaratuvchanlik faoliyati tufayli, uning ehtiyojlarini qondirish natijasida qadriyatlilik ahamiyatiga ega bo‘ladi. Odamlarning manfaatlari, ehtiyojlarini qondira olmagan, ularning orzu-istaklari, intilishlariga mos kelmaydigan, tabiat va jamiyat hodisalarini qadriyatlar sirasiga kiritish noo‘rindir.

Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlarini, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim[4]. Tabiat va jamiyat boyliklari, hodisalarini qadriyatlar sirasiga kiritilishning asosiy sababi-kishilar ularni qadrlaydilar, avaylab-asraydilar, chunki, bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini, ma’naviy-ruhiy dunyosini boyitadi, yaratuvchanlik faoliyatiga yo‘llaydi.

Ma’naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyatiga to‘xtashdan avval, qadriyatlarning turlari va ko‘rinishlarini bilib olish lozim. Qadriyatlar o‘z mohiyati, xususiyatlari va amal qilish doirasiga ko‘ra bir necha turlariga va shakliy ko‘rinishlarga bo‘linadi. Avvalo, barcha qadriyatlar orasida inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo‘q joyda biron narsaning qadr-qimmati, ahamiyati haqida so‘zlash

bema‘nilikdir. Insonsiz borliqdagi mavjud barcha narsa va hodisalar o‘zining qadriyatlik ahamiyatini yo‘qotadi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq inson qadr-qimmatini e‘zozlash, uning manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog‘lig‘ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishini tashkil etib kelmoqda. Jahonda e‘tirof etilgan taraqqiyotning «o‘zbek modeli»ning asosiy tamoyillaridan biri ham bozor iqtisodiyotiga o‘tishda aholining ijtimoiy himoyasiga qaratilganligida chuqur insonparvarlik mohiyati mavjuddir.

Insonning yashashi uchun zarur bo‘lgan barcha tabiiy boyliklar – yer, suv, havo, quyosh, turli madanlar, o‘simliklar, hayvonat dunyosi va boshqalar, shuningdek, inson mehnati, hatti-harakati, aql-zakovati bilan yaratilgan turli-tuman moddiy boyliklar, zavod va fabrikalar, ishlab chiqarish, transport vositalari, asbob-uskunalar, hozirgi zamon axborat texnologiyalari, turar joy, mol-mulk, noz-ne‘matlar va boshqalar tabiiy va moddiy qadriyatlar hisoblanadi. Bularsiz insoniyat yashay olmaydi. Tabiat va uning boyliklari biz uchun moddiy ne‘matlarning bosh manbai hisoblanadi. Ularni asrab-avaylash, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga har birimiz ma‘naviy va amaliy jihatdan mas‘ulmiz.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida: «Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonat dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir»[3, 41], - deb yozilganki, ularni asrab-avaylash, saqlash, kelgusi avlodlarga sof holda qoldirishimizda har birimizga javobgarlik ma‘suliyatini yuklaydi.

Muayyan jamiyat, davlat tuzilmasi, uning huquqiy asoslari, shaxs erkinligi va huquqlari, adolat, ozodlik, tenglik, tinchlik, birodarlik kabilar ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar sirasiga kiradi. Insoning erkinligi, uning qadr-qimmatini jamiyatimizning oliy qadriyatidir. Bu haqda asosiy qomusimizning 13-moddasida shunday so‘zlar yozilgan: “O‘zbekiston Respublikasi demokratiya, umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmatini va boshqa dahlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi”[3, 9].

Istiqlol tufayli mamlakatimizda barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik kabi ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar qaror topdi. «Ko‘p millatli jamiyatimizda, - deydi I.Karimov, - ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, fuqarolar o‘rtasida tinchlik va millatlararo totuvlik saqlanayotganligi mustaqil O‘zbekistonning bunyod bo‘lishi va rivojlanishining birinchi boshlang‘ich bosqichida qo‘lga kiritilgan eng asosiy yutuq bo‘ldi»[5, 262-263]. Yuqorida qayd etgan qadriyatlar yangidan barpo etilayotgan davlatchiligimizning poydevoridir.

Xalqimiz va umuminsoniyat tomonidan yaratilgan ilmiy-falsafiy qarashlar, tarixiy, badiiy san‘at asarlari va diniy amollar; urf-odatlar, an‘analari, bayramlar, marosimlar; insonparvarlik, vatanparvalik, mehnatsevarlik, yaxshilik, burch, vijdon, to‘g‘rilik, halollik kabi axloqiy me‘yorlar insonni ma‘naviy kamolotga eltuvchi ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar sanaladi.

Fuqarosining tafakkuri yuksak rivojlangan mamlakatgina moddiy va ma'naviy to'kis bo'ladi. Shunday ekan, istiqlol va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim tamoyillaridan biri inson qadr-qimmatini har tomonlama yuksaltirish, xalq farovonligini oshirishdan iborat. Bunga erishish uchun xalqimiz, yurtimiz fuqarolarining hamjihatligi va birdamligi, tafakkurini mustahkamlash talab etiladi. Bu vazifa demokratik tafakkur mohiyatini tashkil etadi va u quyidagi umumbashariy qadriyatlarga suyanadi va ulardan oziqlanadi: qonun ustuvorligi; inson haq-huquqlari va hurfiylik; turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash; diniy bag'rikenglik; dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik; o'zga xalqlarning ilg'or tajribasi va madaniyatini o'rganish. Bugungi milliy mentalitet Yangi O'zbekistonning barpo etilishi haqidagi siyosiy, ilmiy, nazariy, falsafiy, tarixiy, qarashlar majmui, xalqni kelajakka ishonch, e'tiqod ruhida tarbiyalovchi g'oyaviy qurol, barcha toifa kishilarni shu maqsad yo'lida birlashtiruvchi g'oyat qudratli ma'naviy omil hisoblanadi.

Yurtimizda bugungi kunda shakllangan yuksak ma'naviy tamoyillarning asosiy mezonlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: mamlakatning mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy yaxlitligi va sarhadlar daxlsizligini ta'minlashga yordam berish; qonunning ustuvorligi, demokratiya va o'z-o'zini boshqarishning hayotda mustahkam o'rin egallayotganligi; milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi; xalqaro huquq qoidalariga hamohanglik.

Biz ma'naviy qadriyatimizni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.

Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi oldingi jamiyatning madaniy yutuqlarini zaruriy ravishda meros qilib oladi, uni qayta ishlaydi, undan ijodiy foydalanadi, uni yangi yuqori bosqichga ko'taradi. Insoniyat tomonidan yaratilgan eng yaxshi va qimmatli narsalar, moddiy va ma'naviy boyliklar yangi tarixiy sharoitda o'zlashtiriladi, qayta ishlanadi va rivojlantiriladi. Har bir avlod o'zi uchun maxsus yangi moddiy madaniy baza tashkil etmaydi, ilm-fan va madaniyatni yangitdan yaratmaydi, balki o'zidan oldingi avlodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyatdan meros sifatida foydalanib uni rivojlantiradi, yangi yuqori bosqichga ko'taradi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, ayni paytda, butun jamiyatimiz uchun milliy ma'naviyat va ma'rifat sohasini yanada rivojlantirish borasida alohida e'tiborni tortadigan ba'zi dolzarb muammo va masalalar ham saqlanib qolmoqdaki, ularning samarali echimlarini topish joriy yildagi faoliyatda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etishi zarurligi shubhasiz.

Birinchidan, tobora shiddat bilan globallashib borayotgan bugungi dunyoga xos bo'lgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarning salbiy ta'siri ortib, odamlarning ongi va qalbi uchun kurash kuchayib borayotgan bugungi kunda, jamiyat hayoti va ma'naviy qadriyatlarni ma'rifiy yo'l bilan himoyalash ishlari zamon talablari, islohot va yangilanishlar sur'atidan ortda qolmasligi zarur, albatta.

Ushbu masalalarni echishning usullari va vositalari, mavjud imkoniyatlari samarasini oshirish zarurati siyosiy ta’lim tizimi faoliyatining bosh mezonini va ustivor yo‘nalishiga aylanishi lozimligi davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Ikkinchidan, xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviy qadriyatlari va ma’rifiy merosini asrab-avaylash hamda jahon sivilizatsiyasii bilan uyg‘un holda rivojlantirish, ilm-ma’rifatga asoslangan erkin va mustaqil tafakkur tarzini jamiyatning har bir a’zosida shakllantirish, xalqimizning O‘zbekistonning ma’naviy-ma’rifiy makonda tutgan o‘rni va mavqeini yanada mustahkamlash masalalari yanada dolzarblashmoqda.

Bu borada eng asosiy vazifa ota-bobolarimiz tomonidan ming yillar davomida yaratilgan odob-axloq qoidalari, shuningdek azaliy an’analar, milliy qadriyatlarimizning yo‘qolib ketish xavfi yuzaga kelayotgani uchun ushbu sohadagi xavf-xatarlarni bartarab etish zarurati davr talabiga aylanib qolayotganini anglash va ushbu jabhaga alohida e’tibor qaratish ehtiyoji bilan bog‘liqligi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 bet.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022. – 440 bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – 128 bet.
4. J.Tulyanov, B.Qodirov, Z.G‘ofurov. Ma’naviy yuksalish sari. – Toshkent: “Mehnat”, 2000. – 103-bet.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – Toshkent: «O‘zbekiston», 1995. – 262-263-betlar.
6. Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2022. – 816 bet.
7. Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2018. – 456 bet.
8. Qandov Bahodir Mirzayevich. Atoqli davlat va jamoat arbobi Turor Risqulovning Turkiston iqtisodiyotining integratsiyalashuvi sohasidagi tashabbuslari. // “Tamaddun nuri” jurnali. № 10. – Qoraqalpog‘iston Respublikasi: 2024. – 103-106 betlar.
9. Qandov Bahodir Mirzayevich. Turkistonda kadrlarni mahalliyashtirish siyosatida Turor Risqulovning roli (XX asrning 20-30-yillari). // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti jurnali. № 12. – Buxoro: 2024. – 60-65 betlar.

<i>Jurayev Xusniddin Pazliddinovich</i>	
FARG‘ONA VODIYSI QISHLOQLARI IJTIMOIIY QIYOFASIDAGI O‘ZGARISHLAR VA UNING XUSUSIYATLARI 1945-1965-YILLAR <i>Sobirov Jamshidbek Zokirjon o‘g‘li</i>	517
XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA AFG‘ONISTONDAGI SIYOSIIY JARAYONLARVA UNING TURKISTONGA TA’SIRI <i>Mattiyev Utkir Begmatdulobovich</i>	522
SHOH-I ZINDA ANSAMBLI ARXEOLOGIK TOPILMALARI ASOSIDA XI–XII ASR SAMARQAND MONUMENTAL ARXITEKTURASINING TAHLILI <i>Xudoyberdiyeva Xulkar Zoxid qizi</i>	530
MARKAZIIY OSIYONING ARAB XALIFALIGI ISTILOSII DAVRI TARIXIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI (INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR ASOSIDA) <i>Xolmatov Shukurillo Ziyovidin o‘g‘li</i>	536
YANGI IQTISODIIY SIYOSATNING TURKISTON O‘LKASI AGRAR MUNOSABATLARGA TA’SIRI <i>Akbayeva Zebiniso Djalolitdinovna</i>	543
“KATTA TERROR” DAVRIDA QORAQALPOG‘ISTONDAGI QATAG‘ONLIK SIYOSATI (1937 - 1938 YILLAR) <i>Ermanov Alisher Bekmurotovich</i>	547
TUROR RISQULOVNING MILLIIY MUSTAQILLIK YO‘LIDAGI SIYOSIIY-IJTIMOIIY QARASHLARI: TARIXIIY TAHLIL <i>Qandov Bahodir Mirzayevich</i>	553
ИСТОРИЧЕСКАЯ УРБАНИСТИКА БУХАРЫ: РАСШИРЕНИЕ ГОРОДА И АДАПТАЦИЯ ЭТНОСОВ (XVI–XIX ВВ.) <i>Давронова Нигора Фармоновна</i>	564
AGITATION AND PROPAGANDA WORK AND ORGANIZATION OF LIBRARY WORK IN KARAKALPAKSTAN IN THE 1920-1930s <i>Reymbaev Rustem Sarsenbaevich</i>	575
USTRUSHONADA MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI <i>Lapasova Maftuna Sanaqul qizi</i>	581
O‘ZBEKISTONDA XALQ TA’LIMI TIZIMI TARIXI <i>Nabijonov Umidjon Abdug‘ani o‘g‘li</i>	588
МУСТАҚИЛЛИКНИНГ ДАСТЛАБКИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКISTON СОГЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИДА ЛИДЕР АЁЛЛАР ФАОЛИЯТИ ВА УЛАРНИНГ СОҲА РИВОЖЛАНИШИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ <i>Холикулова Хулкар Юлдашевна</i>	594
FILOLOGIYA	
XORAZM FOLKLORI MATERIALLARINING TO‘PLANISHI VA QIYOSIIY TADQIQI <i>Maxsuda Yusupboyevna Karimova</i>	600
TINISH BELGILARINI MODELLASHTIRISHDA KOMPYUTER LINGVISTIKASI IMKONIYATLARI VA USULLARI <i>Jumayeva Dilnoza Baxshulloyevna, Nasirov Shuhrat Fayzulloyevuch</i>	608
IJTIMOIIY TARMOQ YOZISHMALARINING LINGVISTIK EKSPERTIZASI <i>Rahimqulova Lobar Hamro qizi</i>	614
BADIIY PSIXOLOGIZM ADABIY KATEGORIYA SIFATIDA <i>Sabirova Zebo Zokirovna</i>	621

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar



Кокандский ГПИ. Научный вестник

“Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar” ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31-martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix hamda 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika fan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Bosishga ruxsat etildi: 2025-y. Nashriyot bosma tabog‘i –16,375.

Shartli bosma tabog‘i –8,18 Bichimi 60x84 1/8.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Poligraf Super Servis» МЧЖ

150114, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahar, Aviasozlar ko‘chasi 2 –uy

Elektron manzil: kspi_info@edu.uz

№7/2025